

GENDER TENGLIGI VA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR TAHLILI

Babaraimova Gulmira Zakirovna

Mustaqillik yillarida aholi turmush darajasini oshirish, munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda kadrlar tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, samarali iqtisodiy islohotlar hamda intellektual salohiyat bilan bog'liq bo'lgan sohalardagi bir qator ijobiy o'zgarishlar natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bois, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarda o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatda kichik biznes rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlayotganligi tufayli, aholining ishbilarmonlik qobiliyati kengayishi, yoshlarda tadbirkorlik tashabbusi ortishi kuzatilmoqda. Bu jihatlarda o'z navbatida, istiqbolli taklif va tashabbuslarni o'z vaqtida rag'batlantirishga katta yo'l ochib bermoqda. Natijada, ish bilan band aholining aksariyat qismi aynan kichik biznes sohasida mehnat qilmoqda, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa ortmoqda. KBXT rivojiga keng yo'l ochib berilganligi aholi bandligining oshishi va daromadlari o'sishida muhim omil bo'lish bilan birga, iqtisodiyotni izchil rivojlantiruvchi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kafolat vositalaridan biriga aylandi.

Bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiyot rivojlanishiga, aholining hayot darajasi va sifati izchil o'sishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Daromadlar ortib borishi esa, o'z navbatida, oilalarning moddiy ahvolini sifat jihatdan o'zgartiryapti. Bu eng muhim, ta'bir joiz bo'lsa, ustuvor ahamiyatga ega. Bunda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkonini bermoqda.

Davlatimiz hayotida so'ngi yillarda beqiyos darajadagi o'zgarishlar bo'lmoqda. Shulardan mamlakatimizda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya etilishini ta'minlash, mehnat huquqini kafolatlash va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga hamda aytib o'tishimiz lozimki so'nggi to'rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so'm mablag' ajratib borish yo'lga qo'yildi. Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning o'qish to'lovlarini qoplab berish tizimi joriy etilib, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar soni ikki baravarga ortdi.

“Bugungi kunda ayollar va erkaklar mutlaqo teng huquqqa ega. Bu O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan. Gender omili Mehnat kodeksida ancha batafsil aks ettirilgan. Davlat tomonidan ayollar uchun mehnat me‘yorlari, tug‘ruq ta‘illari, voyaga etmagan bolalarni tarbiyalayotgan onalar uchun ish tartibi belgilangan. Ish beruvchilarning kasaba uyushmalari bilan tuzgan mehnat shartnomalarida ham xotin-qizlarning huquqlarini ta‘minlashning turli normalari mustahkamlangan.

Bugun O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga, davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha jarayonlarida ularning rolini oshirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. So‘z xotin-qizlarning alohida maqomi va ularga nisbatan hurmatni tiklash haqida bormoqda. Bu tamoyillar gender tenglik sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining asosiga aylandi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Biroq eng muhimi kuchli siyosiy iroda bor.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqsadida 224 mingdan ortiq xotin-qizga jami 6,9 trln so‘m miqdorida imtiyozli kredit ajratildi. Sohada olib borilayotgan islohotlar xalqaro reytinglardagi mamlakatimiz o‘rniga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib, Jahon bankining Ayollar, biznes va qonun indeksida O‘zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi va 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasida 134- o‘rinni egalladi.

O‘zbekiston BMT Nizomining maqsad va prinsiplariga hamda xalqaro huquqning boshqa umume‘tirof etilgan normalariga sodiq ekanliklarini doimo ko‘rsatib kelgan. Xususan, barqaror rivojlanish sohasidagi 5-maqsad — Gender tenglikni ta‘minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir.

Ma‘lumki, 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat siaftida ma‘qullangandi. Ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Quvonarli tomoni shundaki, ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o‘rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo‘lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog‘lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan, qonunning 1- moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. To‘g‘ri, hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O‘zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir.

“Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etilmoqda. Ular uzoq muddat bola parvarishlash ta‘tilida bo‘lgan, mushkul iqtisodiy ahvolga tushgan ayollarni kasblar bo‘yicha qayta tayyorlashga ko‘maklashadi, ayollarning biznes yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi, ularga maslahatlar beradi va amaliy yordam ko‘rsatadi. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlar tuman (shahar) hokimi va xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan shakllantiriladigan ro‘yxat asosida maxsus o‘qitish dasturi bo‘yicha o‘qitiladi. Maxsus dasturlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirganlarga tuman (shahar) xotin-qizlar qo‘mitasi tavsiyasiga

ko'ra tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kredit beriladi. Kredit muddati 6 oylik imtiyozli davr bilan 3 yildan oshmaydi, stavka – yillik 8%. Buning uchun Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi banklarga har yili 100 mlrd so'm ajratadi, uning kamida yarmi qishloq joylardagi xotin-qizlarning biznesini rivojlantirishga yo'naltiriladi" – deyilgan va bundan tashqari boshqa bir qancha ayollarni mehnat huquqlarini kafolatlari ko'rsatib o'tilgan.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимга бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисдаги нутқ. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 26 б.
2. Қўчқоров В. Глобаллашув жараёнида раҳбарнинг маънавий қиёфаси. // “Бошқарувнинг ижтимоий-психологик жиҳатларини ўрганишда замонавий тадқиқот усуллари” мавзuidaги илмий-амалий конференция материаллари. – Т., 2016. – 16 б.
3. Ахмадалиева N.F. Moliya tizimini rivojlantirishda inson kapitali indeksini joriy holati tahlili / “Moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari”: Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. T.: Iqtisod-Moliya, 2023. 05.24. 469-471 b.
4. Ахмадалиева N.F. Advanced foreign experiences of investing in human capital and opportunities to use them in Uzbekistan / “O'zbekistonda xalqaro moliya munosabatlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari”: Xalqaro ilmiy-amaliyanjuman materiallari to'plami. T.: Zebo-prints, 2023. 10-noyabr. 485-487 b.

INNOVATIVE
ACADEMY